



Date: 30 April 2026

## AHMAD YASSAVIY IJODIDA DINIY-TASAVVUFIY QARASHLAR

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi

Telefon +998(97)9252885

**Annotatsiya:** Maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mouman, muqir, iridi, yozuq, pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, imon.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta'limoti bilan, ham og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, she'rlarda uchrovchi pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, imon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog'lansa, yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Nafs haqida gapirar ekan, Yassaviy uni insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baholaydi. Unga "shum" sifatining berilishi bejiz emas. Shuningdek, "nafsi bad", "nafs yo'li", "nafsi ilgi" singari ifodalar shoir fikrini yorqinlashtiradi. Adib to'g'ridan to'g'ri nafsni tepkil, nafsdan kech deya targ'ib qiladi.

Ahmad Yassaviy shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlarining xususiyatlaridan kelib chiqib o'z hikmatlarida takabburlikka qarshi «xokorslik» falsafasini ilgari suradi, mutafakkir nazdida takabburlik adolatning dushmani.

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo`q,  
Podshohlarda, vazirlarda adolat yo`q.

Ahmad Yassaviyning falsafiy talqinicha podsho va amaldorlarning adolatsizliklari hayotga qattiq ziyon-zahmat etkazadi. Bu odamlar o'rtasida hurmatsizlik, oqibatsizlik, shafqatsizlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Bu xil ijtimoiy muhitda riyo va makkorliklar qariyb qonuniyatga aylanadi. Vaholanki, Yassaviy boy-badavlat kimsalarga, mansabdorlarga, umuman, ahli mo'minga qarata:

G`arib, faqir etimlarni qilg`il shodmon,  
Haqlar qilib aziz joning ayla qurbon,  
Taom topsang, joning bila qilg`il ehson,  
Haqdin eshit bu so`zlarni aydim mano.

Bular bejiz aytilmagan, Yassaviy ijtimoiy nohaqlikni chuqur anglaydi, uning mohiyatini teran fahmlaydi. Zotan tasavvufning o'zi bir paytlar mavjud, tuzum adolatsizliklariga norozilik kayfiyatlari ifodasi sifatida maydonga kelgan edi. Ahmad Yassaviy dunyoparast, molparast, xasis, ochko`z kimsalarni qattiq tanqid tig'i ostiga oladi:

Dunyoparast nojinslardan buyun tovla,  
Buyun tovlab daryo bo`lib toshdim mano.



Date: 30 April 2026

Umuman, dunyodorlik, ahli havo, manmanlik, takabburlik, nafs balosiga bandalik, mansabparastlik, kibr, xudbinlik, fuqaroga napisand qarash, zulm-zo`rlik, behuda xusumat, adovat, g`iybat, kishilar moliga ko`z tikish, ko`rolmaslik, fisqu fujur, amal otiga minib olib o`zgalarni nazarga ilmaslik kabi illatlar takror-takror eslatilib Yassaviy hikmatlarining asl g`oyasi belgilaydi:

Munofiqlar yururlar fisqu fujur qilurlar,

Harom, shubha eyurlar, qo`rqub yig`lar Xoja Ahmad.

Yassaviy hikmatlarida «Qur`oni karim» oyatlari, rivoyatlari, suralari tajassum topgan, hadis bitiklarining mazmuniy mohiyati she`rga singdirilib ularda Odam ato, Momo havo, Yusuf, Yunus, Ya`qub va boshqa talab rivoyatlarga ishoralar bor:

Yunusdek daryo ichra baliq bo`lsam,

Yusufdek quduq ichra vatan qilsam

Yoqubdek Yusuf uchun ko`p yig`lasam.

Bu ish birla yorab, seni topgaymumen?

«Qur`on» hikoyatlaridan foydalanib she`rga solinib donishmandona jilo berilgan va hikmatlarda singdirilgan iboratomuz o`gitlar mu`jaz talqinda kishilarni yaxshilikka, ezigulikka yo`naltiradi.

Yassaviy tasavvuf yo`lini tutgan barcha so`fiylar bir xil emasligini, ularning yaxshilari va yomonlari mavjudligini yaxshi anglab etadi va yomonlarini ochiq-oydin yomonlaydi, tanqid qiladi:

Darveshman deb toat qilur xalq ichinda,

Riyo qilib yugurib yurar anda-munda

Olloh uchun toat qilg`on darvesh qanda.

Chin darveshlar tog`u cho`lni makon qilur.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida «tuproq» so`zi tez-tez uchraydi, bu so`z aslida badiiy obraz sifatida qo`llanadi va chuqur g`oyaviy mazmun, mohiyat kasb etadi:

Tufroq bo`lg`il, olam sani bosib o`tsin...

Bu xildagi misralar «Devoni hikmat»da istagancha topiladi:

Ishq bobini Mavlon ochgach, manga tegdi.

Tufroq qilib, hozir bo`l deb bo`ynim egdi.

Tasavvufda, tuproq, Ollohning munavvar nuri suv uning yorug` hayoti, havo buyukligi, olov uning g`azabi timsoli. Tuproq va suv-jannat mulki, shamol va olov-do`zax ichidagi narsalar. Demak, tuproq Yassaviy talqinida inson, u shu tuproqda, erda, zaminda yashaydi, undan o`z rizqini undiradi, tuproq-maskan, tuproq-vatan, odam tuproqdan bino bo`lgan va u yana tuproqqa aylanadi, unga qaytadi, o`zligini topadi. Tuproq-ko`p ma`nolarga ega, u badiiy obraz shaklida Yassaviy hikmatlarining g`oyaviy mazmunini belgilaydi.

Ulug` alloma shoir Xoja Ahmad Yassaviy XII asr olamida, o`zining asarlari orqali turkiy adabiyotni va eski turkiy adabiyot tilining mavqeini jahon miqyosiga ko`tardi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot. ( majmua). 10-sinf uchun.T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 49-57-betlar

